



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

4. Gibson R.F. Principles of Composite Material Mechanics. – New York: CRC Press, 2012.
5. Daniel I.M., Ishai O. Engineering Mechanics of Composite Materials. – Oxford University Press, 2006.

PEDAGOGLARDA KASBIY XAVOTIRNI KAMAYTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK USULLARI

Djumanov Sherali Zakirovich

O‘zMU Jizzax filiali, Psixologiya kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada pedagoglarda kuzatiladigan kasbiy xavotir, uning sabablari va pedagogik faoliyatga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, kasbiy xavotirni kamaytirishning psixologik-pedagogik usullari, stressni boshqarish hamda pedagogning psixologik barqarorligini rivojlantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy xavotir, pedagogik stress, emotsional kuyish, psixologik barqarorlik, stressni boshqarish, motivatsiya.

Jamiyat rivojlangan sari ta’lim tizimida ham turli o‘zgarishlar yuz bermoqda va bu holat pedagog faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablarning ortishi, mas’uliyatning kuchayishi hamda doimiy yangilanishlarga moslashish zarurati pedagoglarda kasbiy xavotirning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois pedagogik faoliyat samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining psixologik holati, o‘z kasbiga va atrofdagilarga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq hisoblanadi.

Hamimizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq[1]. Ma’lumki, pedagogik faoliyat jarayonida doimiy muloqot, yuqori emotsional zo‘riqish va mas’uliyat o‘qituvchining ruhiy holatiga ta’sir qiladi. Kasbiy xavotir esa pedagogning o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan bo‘ladigan munosabatlarida salbiy holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ayniqsa, stress va emotsional charchoq pedagogik faoliyat sifatining pasayishiga olib keladi.

Shu sababli ham pedagoglarda kasbiy xavotirni kamaytirish, ularda psixologik barqarorlikni shakllantirish hamda sog‘lom pedagogik muhit yaratish bugungi kunda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada pedagoglarda kasbiy xavotirning sabablari, uning salbiy oqibatlari va uni kamaytirishning psixologik-pedagogik usullari yoritiladi.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda pedagog kasbiga qo‘yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. O‘qituvchi nafaqat ta’lim beruvchi, balki tarbiyachi, psixolog, innovator va kommunikator sifatida ham faoliyat yuritishi talab etiladi. Bunday mas’uliyatning ortishi ko‘plab pedagoglarda kasbiy xavotir holatining yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Kasbiy xavotir pedagogning ruhiy zo'riqishi, ichki beqarorligi va o'z faoliyatidan doimiy xavotir hissini boshdan kechirishi bilan namoyon bo'ladi. Mazkur holat o'qituvchining dars sifati, o'quvchilar bilan munosabati va umumiy pedagogik samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagoglarda kasbiy xavotirni kamaytirishning samarali psixologik-pedagogik usullarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kasbiy xavotir pedagogik faoliyat jarayonida turli omillar ta'sirida shakllanadi[4]. Ularga quyidagilar kiradi:

- ish yuklamasining ortishi;
- hujjatlar bilan ishlash hajmining ko'payishi;
- ota-onalar va ma'muriyat bilan murakkab munosabatlar;
- dars samaradorligi uchun yuqori javobgarlik;
- zamonaviy texnologiyalarga moslashish zarurati;
- vaqt taqchilligi;
- emotsional zo'riqish va charchoq.

Ayniqsa, yosh pedagoglarda tajribaning yetishmasligi sababli xavotir holati kuchliroq namoyon bo'ladi. Tajribali o'qituvchilarda esa uzoq yillik emotsional yuklama natijasida kasbiy kuyish holatlari kuzatiladi.

Pedagogdagi doimiy xavotir uning kasbiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holat dars samaradorligining pasayishiga, pedagogik muloqot jarayonida ziddiyatlarning ortishiga hamda o'quvchilarga nisbatan asabiy munosabatning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, kasbiy xavotir pedagog motivatsiyasining susayishi, tez charchash va emotsional kuyish sindromining rivojlanishiga olib keladi[2].

Bunday holatlar ta'lim sifati va o'quvchilarning psixologik muhitiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois pedagogning ruhiy holatini qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

Pedagoglarda kasbiy xavotirni kamaytirishning psixologik-pedagogik usullari

1. Psixologik treninglar tashkil etish;
2. Sog'lom psixologik muhit yaratish;
3. Stressni boshqarish texnikalaridan foydalanish;
4. Pedagogik kompetensiyani rivojlantirish;
5. Mentorlik va psixologik yordam tizimini yo'lga qo'yish[5].

Xulosa qilib aytganda, pedagoglarda kasbiy xavotir zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb psixologik muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu holat pedagog faoliyati samaradorligiga, ta'lim sifati va o'quvchilar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagoglarning psixologik salomatligini mustahkamlash, ularda stressga chidamlilikni shakllantirish hamda qulay pedagogik muhit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Psixologik treninglar, stressni boshqarish texnikalari, mentorlik tizimi va pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan samarali foydalanish pedagoglarda kasbiy xavotirni kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevralda qabul qilingan “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi O‘RQ-901-sonli Qonuni
2. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2010.
3. Каримова В.М., Акрамова Ф.А., Очилова Г.О., Мусаханова Г.М. Педагогика психология. Ўқув қўлланма – Т.: ТДИУ, 2010 - 393 б.
4. Махсудова М.А.Мулоқот психологияси // ўқув қўлланма. — Т.: “Турон - Иқбол”, 2006. 119 б.
5. Djumanov S., Galimov A. BO‘LAJAK O‘QITUVCHI FAOLIYATINI SHAKLLANISHIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNING O‘RNI //Scientific journals" D-PRESS SERVICES". – 2026. – T. 4. – №. 8. – C. 125-130.

PEDAGOGIK JARAYONDA AFFILIATSIYA MOTIVINI SHAKLLANISHIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI O‘RNI

Rashidova Gulnoza G‘ulomovna

O‘zMU Jizzax filiali, Psixologiya kafedrasi dotsenti

Zokirova Sevinch Sherali qizi

O‘zMU Jizzax filiali, Psixologiyasi yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik jarayonda affiliatsiya motivini shakllantirishda kommunikativ qobiliyatlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari tahlil qilinib, samarali muloqot, empatiya va interfaol munosabatlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik jarayon, affiliatsiya motivi, kommunikativ qobiliyat, pedagogik muloqot, empatiya, interfaol munosabat, pedagogik mahorat.

Ma’lumki, ilmiy tadqiqot jarayoni va uning yechimlarini izlash natijalari jamiyat taraqqiyoti rivojining asosini tashkil etadi, ya’ni ular orqali taraqqiyot sur’ati tezlashadi. Bunday taraqqiyot sur’atini esa umummilliy tadqiqotlar yordamida ta’minlash mumkin bo‘ladi va ular xususiy ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Umumilmiy tadqiqotlar inson aqliy faoliyatining ma’lum maqsadga yo’naltirilgan ijodiy harakatlar majmuasidan iborat bo‘lib, hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi aloqadorlik hamda taraqqiyot qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Bunday izlanishlarning asosiy maqsadi yangi bilimlarni egallash, mavjud jarayonlarni takomillashtirish hamda ular asosida yangi metodologiya, texnologiya va innovatsion yondashuvlarni yaratishdan iboratdir. Bugungi globalashuv sharoitida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi zamonaviy tendensiyalar demokratik jamiyat va fuqarolik institutlari rivoji talablariga mos ravishda talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish, ularda muloqot madaniyati, empatiya, notiqlik mahorati hamda affiliatsiya motivini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Chunki pedagogik jarayonning samaradorligi ko‘p jihatdan